

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**«RO'YXATGA OLINDI»**

№ VM - 343 - 3400 - 3.10  
«09» \_\_\_08\_\_\_ 2003 y.

**«TASDIQLANDI»**

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligi  
S.Tulyaiov  
«1» iyul 2003 y.**

**«INVESTITsIYaLARNI TASHKIL ETISH VA  
MOLIYaLASHTIRISH»  
fanidan  
DASTUR**

**340000 - "Biznes va boshqaruv" ta'lim sohasidagi barcha bakalavriat yo'nalishlari  
uchun**

**Tuzuvchilar:** i.f.n., A.S.Jo'raev,  
i.f.n., dots. N.G.Karimov

**Taqrizchilar:** i.f.n., dots. O.Sobirov,  
k. o'q. B.S.Mamatov

Bozor iqtisodiyoti va islohotlarining hozirgi sifat bosqichida hamda iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish sharoitida davlatning investitsiya faoliyati va investitsiya dasturlarini amalga oshirishi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

«Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish» fanining predmeti bo'lib, investitsiyalarni moliyalashtirish tizimida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi. Kursda asosiy e'tibor investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qulay sharoit yaratish, investitsiyalarni moliyalashtirishning muqobil shakllari bo'lgan lizing kreditlari va investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish shakllariga katta e'tibor berilgan.

Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish o'quv fani talabalarga investitsiya faoliyatini tashkil etish, moliyalashtirish va kreditlashtirishning, shuningdek, investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini hamda monitoringi bo'yicha amaliy va nazariy savollar yuzasidan bilim egallashlariga imkoniyat beradi

На современном этапе рыночных реформ, в условиях структурной перестройки экономики особа важное значение приобретает инвестиционная деятельность государства, реализация инвестиционной программы.

Предметом курса «Организация и финансирование инвестиций» являются экономические отношения, возникающие в системе финансирования инвестиций. В дисциплине особое внимание акцентируется на альтернативных формах финансирования, лизинговое кредитование и проектное финансирование инвестиционных проектов, создающих приоритетные условия для повышения экономической эффективности инвестиций.

Учебная дисциплина «Организация и финансирования инвестиций» дает возможность студентам овладеть теоретическими и практическими знаниями по вопросам организации финансирования и кредитования инвестиционной деятельности государства мониторинга экономической эффективности инвестиций.

On the contemporary stage of the market reforms the investment activity of the government and realization of investment program acquires of the great importance in the conditions of structural transformation of the economy. The subject «Organization and the investments financing» is the economic relations arising in the system of investments financing. The discipline gives a special attention to the alternative forms of financing, leasing crediting and project financing of the investment projects creating priority conditions for increase of an economic efficiency of the investments. The educational discipline «Organization and investments financing» enables the students to take possession of theoretical and practical knowledge on organization of financing and crediting of investment activity of the state and the monitoring of investments economic efficiency.

## **1. SO'Z BOSHI**

### **O'quv fanining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi**

«Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish» fanini o'qitishning maqsadi – kelgusida yuqori malakali iqtisodchi bakalavrlar bo'lib etishadigan talabalarga O'zbekiston Respublikasining investitsiya faoliyati va uning yo'nalishlari haqida nazariy va amaliy bilimlar berish, banklarning investitsiya faoliyatini tashkil etish va moliyalashtirishdagi yo'nalishlari bo'yicha ularda asosiy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib fan o'z predmetini o'rgatish uchun quydagi vazifalarni qo'yadi:

- investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish jarayonlarini;
- investitsiyalarni moliyaviy ta'minlovchi manbalar;
- investitsiyalarni moliyalashtirish uchun pul mablag'larini to'plash usullari va shakllari;
- kapitalni joylashtirish usullari;
- shu maqsad uchun to'plangan resurslarni byudjetdan moliyalashtirish yoki banklar orqali kreditlash yo'llari bilan xo'jalik sub'ektlariga berish va boshqalar.

Mazkur fan iqtisodiyot nazariyasi faniga asoslanadi va «Buxgalteriya hisobi», «Bank ishi», «Moliya», «Mikroiqtisodiyot», «Korxonalar iqtisodiyoti» vaboshqa fanlar bilan bevosita bog'liqdir.

**Fan bo'yicha talabalarning bilimi, uquvi va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar**

Mazkur fanni o'rganish jarayonida talabalar quyidagi bilim, uquv va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:

- - iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning ahamiyati;
- - investitsiya faoliyatini tashkil etish;
- - investitsiya faoliyatini tartibga solish jarayonlari;
- - investitsiyalarni turli manbalar evaziga moliyalashtirish va kreditlashtirish tartiblari;
- - investitsiyalarning samaradorligini baholash usullari;

Talabalar mazkur o'quv fani bo'yicha yuqorida ko'rsatib o'tilganlar to'g'risida tasavvurga ega bo'lishlari, amaliyotda qo'llay olishlari va yangiliklarni o'zlashtirishni bilishlari lozim. Shuningdek, ular kompyuterlardan, axborot vositalaridanva boshqa zamonaviy texnologiyalardan foydalanish asoslarini o'rgatuvchi fanlarni ham o'zlashtirishlari kerak.

O'qitish jarayonida nazariy bilim bilan amaliyotni solishtirish usullarini, talabalarning mustaqilligini ta'minlovchi o'quv jarayonini, bilimga bo'lgan qiziqishini tashkil qilish bilan birga ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratib berish kerak.

#### **Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar minimal miqdoriga talablar**

O'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlar mavzulari yuzasidan talabalar tegishli mavzular bo'yicha konspektlar oladi, referatlar hamda mustaqil ishlar tayyorlaydi va amaliyot o'qituvchisi baholashida ular yuzasidan suhbatdan o'tadilar. Ushbu talablar amaliy mashg'ulotlar mavzularida kursiv bilan ko'rsatilgan savollar bo'yicha talabalarning dars jarayonini to'liq o'zlashtirishlarini belgilab beradi.

#### **Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlari hajmi (foizlarda) bo'yicha tavsiyalar**

Fanning umumiy soatlar hajmi 108 soat bo'lib, shundan 36 soat ma'ruza, 36 soat amaliy mashg'ulot va 36 soat mustaqil ta'lim olishga bo'lingan.

O'quv jarayonida rejaga muvofiq oldin ma'ruza, keyin amaliy mashg'ulot o'tkaziladi. O'tilgan mavzular bo'yicha talabalarning mustaqil o'rganishi uchun alohida mavzular bo'yicha uy vazifalari beriladi. Talabalarning olgan bilimlarini aniqlashning yoki yozma usullari qo'llaniladi.

#### **Talabalar bilimini baholash uchun o'tkaziladigan baholash tadbirlari miqdori**

Ushbu fan bo'yicha talabalar bilimni baholash o'quv reyting tizimi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy baholash asosida amalga oshiriladi.

Fanni o'qitishda ikki marotaba joriy baholash (seminar mashg'ulotlarida), ikki marotaba oraliq baholash (ma'ruza mashg'ulotlarida) va bir marotaba yakuniy baholash (yozma ish usulida) o'tkaziladi.

### **Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash**

«Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish» fanini o'qitishning kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarining tarkibiy qismlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. o'quv maqsadlari va vazifalari katalogini ishlab chiqish;
2. o'quv maqsadlarini test(nazorat) topshiriqlariga ko'chirish;
3. tarqatma materiallardan, testlar to'plamidan, slayd va kompyuter dasturlaridan foydalanish kabilar tavsiya etiladi.

Ish dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

Mazkur fan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan barcha talabalarga birinchi semestrda o'tilishi mo'ljallangan. Bu fanni o'qitishda investitsiya faoliyatiga tegishli qonunlar, hukumat qarorlari, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kreditlashtirish bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy - huquqiy hujjatlar, shuningdek, kompyuter dasturlaridan, saytlardan foydalanish lozim.

«Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish» fanini ma'ruza va amaliy mashg'ulot shaklida auditoriyada o'rgatish usuli qo'llaniladi. Talabalarning o'quv jarayonida auditoriyada olgan bilimlari reyting usulida o'qituvchilar hamda belgilangan hay'at a'zolari tomonidan baholash tavsiya etiladi.

## **2. FAN DASTURI**

### **Kursning predmeti va mazmuni**

«Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish» fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Fanning tarkibiy tuzilishi va boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

## **Investitsiyalar, ularning iqtisodiy mohiyati hamda makro va mikro iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati**

«Investitsiyalar», «Kapital qo'yilmalar» tushunchasi, ularning o'xshashligi va farqi. Moliyaviy (portfel) investitsiyalar. Real (moddiy) investitsiyalar. *Intellectual investitsiyalar*. Investitsiya iqtisodiy kategoriya sifatida, ularning mikro - makro iqtisodiyot darajasidagi funktsiyalari. Investitsiya faoliyatining sub'ektlari va ob'ektlari.

### **Investitsiya faoliyati va investitsiya siyosati**

Investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishda davlatning roli. Investitsiya faoliyatiga iqtisodiy (egri - bevosita) va boshqaruv (to'g'ridan - to'g'ri) usullari bilan ta'sir etish. *Investitsiya sohasidagi me'yoriy - qonuniy bazalarning holati*. «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar. Investitsiya siyosati, uning mazmuni va bozor iqtisodiyoti sharoitida ularning roli.

### **Davlat investitsiya dasturi**

O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi – mamlakatni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolini belgilashning tarkibiy qismi sifatida. Dasturning asosiy maqsadi. Dasturni shakllantirish muddati va tartibi. Kapital qo'yilmalarni rejalashtirish - muhim investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxati. Investitsiya loyihalarining adres dasturlari. Adres ro'yxatlari va ularni ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi. Dasturni davlat tomonidan qo'llab - quvvatlash. *Dasturni amalga oshirish ustidan baholash*.

### **Iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati**

Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va mazmuni. Xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilishning ob'ektiv zarurligi. *Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotdagi roli*. Ular uchun yaratilgan huquqiy va iqtisodiy shart - sharoitlar. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning shakllari.

### **Real investitsiyalarni moliyalashtirishning asosiy tamoyillari va manbalari**

Real investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining mohiyati va turkumlanishi. Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun mablag'larni safarbar etish tartibi. *Qurilishni moliyalashtirishni banklarda ochishning asosiy tamoyillari va shartlari*.

### **Investitsiya faoliyatida kapital qurilish**

Kapital qurilishning mohiyati. Kapital qurilish va kapital qo'yilmalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Yangi qurilish, ta'mirlash, kengaytirish, texnik qayta jihozlash tushunchalari. «Qurilish industriya»si tushunchasi, uning tavsifi, qurilish ishlab chiqarishining davomiyligi. Qurilishning umumiy muddati. Mamlakat iqtisodiyoti uchun qurilishning muddatini qisqartirishning ahamiyati. Qurilishning uch bosqichi: tayyorgarlik, qurilish, qurilish mahsulotining realizatsiyasi. Qurilishda xo'jalik yuritishning hissadorlik jamiyatlari shakllarini joriy etish. Qurilishning ikki xil shakli va ularga tavsif. Kapital qurilishda loyihalashtirish, loyihalar sifatining kelgusi qurilish uchun ahamiyati. Buyurtmachi va loyihachilarning huquq va majburiyatlari. Loyiha qidiruv tashkilotlarini moliyalashtirish tartibi. *Qurilish - montaj ishlarining smeta qiymati. Qurilish ob'ektining shartnoma narxlari.*

### **Investitsiyalarni byudjetdan moliyalashtirish**

Byudjetdan moliyalashtirish tamoyillari. Byudjetdan moliyalashtirishning ob'ekti va sub'ektlari. Byudjet mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash. Byudjet resurslaridan foydalanishning maqsadi va xarakteri. Byudjet resurslari hisobiga moliyalashtiriladigan qurilishni «Rejaning bajarilishi» usuli bo'yicha moliyalashtirish. *Buyurtmachi va pudratchiga banklardan ochiladigan hisob - kitob raqamlari. Byudjetdan moliyalashtirishni ochish shartlari.* Banklarda moliyalashtirishni ochish uchun tavsiya etiladigan hujjatlar ro'yxati. Respublika Markaziy banki orqali qaytarib berish sharti bilan byudjetdan moliyalash.

### **Kapital qo'yilmalarni kreditlash**

Korxonalarining asosiy fondlarini uzoq muddatga kreditlashning ob'ektiv zarurati. Kapital qo'yilmalarni kredit orqali moliyalashtirishning afzalligi. Uzoq muddatga kreditlashtirishning mohiyati va mexanizmi. Kreditlash ob'ekti, kredit olish huquqini berish tartibi, kredit berish, foiz siyosati, asosiy qarzni va foizni to'lash, kredit monitoringi. *Ipoteka krediti: mohiyati, o'ziga xosligi va ahamiyati.*

### **Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning muhim shakllari**

#### **(lizing, forfeiting)**

Lizing, uning mohiyati, turlari va iqtisodiy tavsifi. Lizing oldi - berdisini tashkil etish. Lizing to'lovlari summasini aniqlash. *O'zbekistonda lizingni rivojlantirish zarurati va dolzarbligi.* Forfeiting - uning mazmuni va amalga oshirish tartibi.

Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish

Investitsiyalarni «loyihaviy moliyalashtirish» tushunchasi. Loyihaviy moliyalashtirish bosqichlari:

- loyihalarning texnik ekspertizasi
- loyihalarning iqtisodiy tahlili
- loyihalarning moliyaviy tahlili
- risklarni aniqlash.

Loyihaviy moliyalashtirish mexanizmi (sindikatlashgan kreditlar). *Loyihalarning hayotiyli monitoringi.* Loyihaviy moliyalashtirishning samaradorligini oshirish uchun banklarda chora - tadbirlar qabul qilish.

### **Investitsiya risklari va ularni pasaytirish yo'llari**

«Investitsiya risklari» tushunchasi va uning investitsiya faoliyatidagi o'ziga xos xususiyati. Risklarning tasniflanishi. *Investitsiya risklarini aniqlash usullari.* Risklarni boshqarish va risk darajasini pasaytirish yo'llari.

## **3. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARINING TAXMINIY RO'YXATI**

### **Investitsiyalar, ularning iqtisodiy mohiyati va makro -hamda mikroiqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati**

«Investitsiyalar», «Kapital qo'yilmalar» tushunchasi, ularning o'xshashligi va farqi. Moliyaviy (portfel) investitsiyalar\*. Real (moddiy) investitsiyalar\*. Intellektual investitsiyalar\*. Investitsiya iqtisodiy kategoriya sifatida, ularning mikro - makro iqtisodiyot darajasidagi funktsiyalari. Investitsiya faoliyatining sub'ektlari va ob'ektlari.

### **Investitsiya faoliyati va investitsiya siyosati**

Investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishda davlatning roli. Investitsiya faoliyatiga iqtisodiy (egri - bevosita) boshqaruv (to'g'ridan - to'g'ri) usullari bilan ta'sir etish. Investitsiya sohasidagi me'yoriy - qonuniy bazalarning holati. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni\*. Investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar\*. Investitsiya siyosati, uning mazmuni va bozor iqtisodiyoti sharoitida ularning roli.

### **Davlat investitsiya dasturi**

O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi – mamlakat ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi istiqbolini belgilashning tarkibiy qismi sifatida. Dasturning asosiy maqsadi\*. Dasturni shakllantirish muddati va tartibi. Investitsiya loyihalarning



adres dasturlari\*. Adres ro'yxatlari va ularni ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi. Dasturni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash. Dasturni amalga oshirilishi ustidan nazorat.

### **Iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati**

Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va mazmuni. Xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilishning ob'ektiv zarurligi\*. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotdagi roli. Ular uchun yaratilgan huquqiy va iqtisodiy shart - sharoitlar. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning shakllari\*.

### **Real investitsiyalarni moliyalashtirishning asosiy tamoyillari va manbalari**

Real investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining mohiyati va turkumlanishi. Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun mablag'larni safarbar etish tartibi\*. Qurilishni moliyalashtirishni banklarda ochishning asosiy tamoyillari va shartlari.

### **Investitsiya faoliyatida kapital qurilish**

Kapital qurilishning mohiyati. Kapital qurilish va kapital qo'yilmalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik\*. Yangi qurilish, ta'mirlash, kengaytirish, texnik qayta jihozlash tushunchalari., «Qurilish industriya»si tushunchasi, uning tavsifi, qurilish ishlab chiqarishning davomiyligi. Qurilishning umumiy muddati. Mamlakat iqtisodiyoti uchun qurilishning muddatini qisqartirishning ahamiyati. Qurilishning uch bosqichi: tayyorgarlik, qurilish, qurilish mahsulotining realizatsiyasi. Qurilishda xo'jalik yuritishning hissadorlik jamiyatlari shakllarini joriy etish. Qurilishning ikki xil shakli va ularga tavsif. Kapital qurilishda loyihalashtirish, loyihalar sifatining kelgusi qurilish uchun ahamiyati. Buyurtmachi va loyihachilarning huquq va majburiyatlari. Loyiha qidiruv tashkilotlarini moliyalashtirish tartibi. Qurilish montaj ishlarining smeta qiymati qurilish ob'ektining shartnoma narxlari.

### **Investitsiyalarni byudjetdan moliyalashtirish**

Byudjetdan moliyalashtirish tamoyillari. Byudjetdan moliyalashtirish ob'ekti va sub'ektlari. Byudjet mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash\*. Byudjet resurslaridan foydalanishning maqsadi va xarakteri. Byudjet resurslari hisobiga moliyalashtiriladigan qurilishni «Rejaning bajarilishi» usulibo'yicha moliyalashtirish. Buyurtmachi va pudratchiga banklardan ochiladigan hisob - kitob raqamlari. Byudjetdan moliyalashtirishni ochish shartlari. Banklarda

moliyalashtirishni ochish uchun tavsiya etiladigan hujjatlar ro'yxati. Respublika Markaziy banki orqali qaytarib berish sharti bilan byudjetdan moliyalashtirish.

### **Kapital qo'yilmalarni kreditlash**

Korxonalarining asosiy fondlarini uzoq muddatga kreditlashning ob'ektiv zarurati\*. Kapital qo'yilmalarni kredit orqali moliyalashtirishning afzalligi. Uzoq muddatga kreditlashtirishning mohiyati va mexanizmi. Kreditlash ob'ekti; kredit olish huquqini berish tartibi; kredit berish, foiz siyosati, asosiy qarzni va foizni to'lash, kredit monitoringi. Ipoteka krediti: mohiyati, o'ziga xosligi va ahamiyati.

### **Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning muhim shakllari (lizing, forfeiting)**

Lizing, uning mohiyati, turlari va ularga qisqacha tavsif. Lizing oldi - berdisini tashkil etish. Lizing to'lovlari summasini aniqlash. O'zbekistonda lizingni rivojlantirish zarurati va dolzarbligi\*. Forfeiting, uning mazmuni va amalga oshirish tartibi.

### **Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish**

Investitsiyalarni «loyihaviy moliyalashtirish» tushunchasi. Loyihaviy moliyalashtirish bosqichlari\*:

- loyihalarning texnik ekspertizasi
- loyihalarning iqtisodiy tahlili
- loyihalarning moliyaviy tahlili
- risklarni aniqlash.

Loyihaviy moliyalashtirish mexanizmi (sindikatlashgan kreditlar). Loyihalarning hayotiyligi monitoringi. Loyihaviy moliyalashtirishning samaradorligini oshirish uchun banklarda chora - tadbirlar qabul qilish.

### **Investitsiya risklari va ularni pasaytirish yo'llari**

«Investitsiya risklari» tushunchasi va uning investitsiya faoliyatidagi o'ziga xos xususiyati. Risklarning tasniflanishi\*. Investitsiya risklarini aniqlash usullari. Risklarni boshqarish va risk darajasini pasaytirish yo'llari.

## **4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA - NAMOIYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI**

“Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish ” fanini o’rganishda talabalar amaliy yordam tariqasida investitsiyalarni tashkil etish, uni moliyalashtirish va kreditlash tartibini o’rganish bo’yicha slaydlar bilan ta’minlanadi.

Talabalar “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” fanini o’rganishda turli xil axborot vositalaridan, shu jumladan Internet tizimidan ham keng foydalanishlari mumkin.

Unda quyidagi saydlar va elektron pochtalardan foydalanishlari mumkin:

1. <http://www.calvertfoundation.org/>
2. <http://www.optionetics.com/>
3. <http://www.Apexvc.com>
4. <http://www.wisebuy.co.uk/>
5. <http://subscribe.ru>
6. <http://www.bimk.kiev.ua>
7. [tininfo.bigural.ru](http://tininfo.bigural.ru)
8. [www.bashkortostan.ru](http://www.bashkortostan.ru)
9. <http://megapolis.kharkov.ua>
10. <http://www.rada.kiev.ua>
11. <http://alyona.nns.ru>
12. <http://www.hse.ru>
13. <http://www.samara.ru>
14. <http://www.vestona.ru>

## **5. O’ZLASHTIRISH BAHOLASHI**

Fanning umumiy soatlar hajmi 108 soat, shundan yillik o’quvsoati 72 soat bo’lib, uning 36 soati ma’ruza, 36 soati amaliy mashg’ulotlarga (36 soat mustaqil ta’lim) ajratiladi.

Ushbu fan bo’yicha talabalar bilimni nazorat qilish o’quv reyting tizimi asosida baholanib, jami auditoriya soatining 35 foizi - joriy, 35 foizi - oraliq va 30 foizi - yakuniy baholash uchun ajratiladi.

Talabalarni fan bo’yicha o’zlashtirishlarini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi; joriy baholash, oraliq baholash va yakuniy baholash. Joriy va oraliq baholash turiga ajratilgan ballar miqdori o’quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70 foizi, yakuniy baholash esa 30 foiz miqdorida belgilangan

“Investitsiyalarni tashkilotish va moliyalashtirish” fanidan talaba to’plashi mumkin bo’lgan maksimal ball 72 ga teng bo’lib, shundan joriy va oraliq

baholashlarga 25,2 balldan hamda yakuniy baholashga esa 21,6 ball ajratiladi. Joriy va oraliq baholash turlariga belgilangan ballar quyidagi holatlarda qo'yiladi;

- - talabning o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- - amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- - dolzarb mavzular bo'yicha referatlar yozish;
- - mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarish;
- - fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlash.

Tayanch tushunchalariga asoslangan "qzma ish" usulini o'tkazish tartibi "Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida "qzma ish" usulini tatbiq etish bo'yicha Namunaviy Nizom" bilan belgilanadi.

## **6. ADABIYOTLAR**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni: «Investitsiya faoliyati to'g'risida». 1998 y., 24 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning Vazirlar Mahkamasi yig'ilishida «Mamlakatni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishning 2001 yil yakunlari»ga bag'ishlangan ma'ruzasi.// Xalq so'zi, 2002 y., fevral.
3. Angelidi M.S., G'ozibekov D.G. Lizingoviy kredit va texnicheskiy progress. - T.: TMI, 1991.
4. Bankovskoe delo i finansirovanie investitsiy, t.1, t.2. Pod. red. N.Bruka (Vsemirniy Bank Rekonstruktssii i Razvitiya) Institut ekonomicheskogo razvitiya Vsemirnogo Banka, 1995.
5. G'ozibekov D.G., Angelidi M.S. Investitsionnaya deyatelnost pered vxojdeniem v rinochnuyu ekonomiku. – T., 1991.
6. G'ozibekov D.G., Qoraliev T.M. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish. – T.: 1993.
7. G'ozibekov D.G., Angelidi M.S., Karimov N.G. Finansovoe obespechenie investitsiy v ekonomiku Uzbekistana. – T., 1995.
8. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish fanidan testlar to'plami. – T., 1997.
9. G'ozibekov D.G., Sobirov O.Sh. Lizing i ego razvitie v Uzbekistane. – T.: Moliya, 2001.
10. Igoshin N.V., Investitsii. – M.: Yuniti, 1999.

11. Kovalev V.V. Finansovoy analiz. Upravlenie kapitalom. Vibor investitsiy. Analiz otchetnosti. – M.: Finansi i statistika, 2000.
12. Radionova S.P., Radionov N.V.. Otsenka investitsionnix resursov predpriyatiy. – M.: Alfa. 2001.
13. Karp M.V., Shabalin E.M., Eriashvili N.D., Istomin O.B.. «Lizing i .ego ekonomicheskie i pravovie osnovi». - M.: Yuniti - Dana, 2001.
14. Kostyunina G.M., N.N.Liventsev. Mejdunarodnaya praktika regulirovaniya inostrannix investitsiy. - M.: Ankil, 2001.
15. Igoshin N.V. Investitsii. Organizatsiya i finansirovaniya. –T., 2000.
16. Sergeev I.V. Veretennikova N.I. Organizatsiya i finansirovaniya investitsiy. - M.: Finansi i statistika, 2000.
17. Endovitskiy D.A. Kompleksniy analiz i kontrol investitsionnoy deyatel'nosti. - M.: Finansi i statistika, 2001.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Bogatin Yu.V., Shvandar V.A. Otsenka effektivnosti biznesa i investitsiy. - M.: Yuniti, 1999.
2. Leshchenko M.I. Osnovi lizinga. Ucheb. pos. - M.: Finansi i statistika, 2000.
3. Gusakov B.I. «Ekonomicheskaya effektivnost investitsionnoy sobstvennosti- M.: Finansi, 1998.
4. Sergeev A.A. Ekonomicheskie osnovi biznes planirovaniya. - M.: Yuniti - Dana, 1999.
5. Lojnikov A.V. Investitsionniy analiz i kontrol investitsionnoydeyatelnosti. - M.: Finansi i statistika, 2001.
6. Margolin A.M. Ekonomicheskaya otsenka investitsiy. – M.: Finansi i statistika, 2001.
7. Moskvina V.A. Kreditovanie investitsionnix proektov. – M.: Finansi i statistika, 2001.